



**TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

LABOUR ECONOMICS AND
HUMAN CAPITAL 2024 CAPITAL
TASHKENT STATE UNIVERSITY
OF ECONOMICS

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

LABOUR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

scientific electronic journal

LABOUR LABOR ECONOMICS LIFE EXPECTANCY

LIFE EXPECTANCY

2024 yil 4-son

HUMAN CAPITAL

Volume 10, Issue 4, 2024

QUALITY OF EDUCATION

HUMAN CAPITAL INDEX QUALITY



МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ
ВА ИНСОН КАПИТАЛИ
ISSN: 3030-3117



LABORECONOMICS.UZ

МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ ВА ИНСОН КАПИТАЛИ
№ 4-2024

ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O’zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro’yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko’chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog’lanish uchun telefonlar:

+998998818698

Tahririyat Kengashi raisi:**(Chairman of the Editorial Board)**

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:**(Members of the Editorial Board)**

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.

Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d.. prof.

Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof

Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof

Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof

Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.

Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.

Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d., prof.

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.

Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d.. prof.

Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.

Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)

Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.

Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.

G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., (DSc), dots.

Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:**(Community Council members)**

Bred Bodenxauzen (AQSh)

Jon Ankor (Buyuk Britaniya)

Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)

Xeynz Miller (AQSh)

Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)

Masato Xivatari (Yaponiya)

Gerxard Feldmayer (Germaniya)

Eko Shri Margianti (Indoneziya)

Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)

Rohana Ngah (Malayziya)

Sharifah Zanniyerah (Malayziya)

Teguh Dartanto (Indoneziya)

Nur Azlinna (Saudiya Arabiston)

Muhammed Xoliq (Pokiston)

Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich**Veb-administrator (Web admin):** Musayev Xurshid Sharifjonovich

+99899 881-86-98



ilmiymaktab@gmail.com



Tashkent, Uzbekistan

www.laboreconomics.uz

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

S.B.G'oyipnazarov	<i>Change of professions and skills in the field of tourism under the influence of artificial intelligence.....</i>	6-19
I.A.Bakiyeva		
S.M.Kurbanbayeva		
S.S.Amirdjanova	<i>Prioryetetnye napravleniya zanyosti naseleniya i organizatsionno-ekonomicheskie mehanizmy ego realizatsii.....</i>	20-33

INSON KAPITALI

A.B.Irmatova	<i>Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirishda o'qitish tizimi</i>	34-50
A.M.Saidahmadov		
F.O.Odilova	<i>Kasb-xunaqtayt tashkilotlari qurilishi kashfiy kunnikmalari oshiriшiga ta'xusir koursatuvchi omillar</i>	51-60
T.N.Azimov	<i>Rol' vyschego obrazovaniya v obespechenii ustoychivogo rosta chelovecheskogo kapitala</i>	61-78
T.B.Shomurodov	<i>Oziq ovqat xavfsizligini ta'minlashning inson kapitalini rivojlanishiga ta'sirini baholash</i>	79-86

INSON TARAQQIYOTI

Sh.D.Akishova	<i>O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali moliyaviy salohiyatni oshirishning zamonaviy holati.....</i>	87-93
X.X.Yaxshimuratova	<i>Mamlakat aholisining turmush farovonligini oshirishda iste'mol kreditlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan obyektiv zarurligi.....</i>	94-100
Z.K.Murtozayeva	<i>The role of public procurement in the project financing system formed on the basis of public opinion in the Republic of Uzbekistan.....</i>	101-109
Ch.O'.Ro'zimurodova	<i>Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish: zamonaviy tendensiyalar va asosiy o'zgarishlar.....</i>	110-120
T.B.Shomurodov	<i>O'zbekistonda aholi daromadlarining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini baholashning metodologiyasini takomillashtirish.....</i>	121-130

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH

O.A.Norboev	<i>Mulkiy munosabatlardan mechanizmini takomillashtiriш.....</i>	131-141
--------------------	--	---------

T.B.Shomurodov

Daromad tengsizligining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri: rivojlanayotgan mamlakatlar misolida..... 142-150

Z.T.Jumanova

MIGRATSIYA
Turizm sohasi faoliyatini statistik tahlil qilish..... 151-161

M.F.Abdumannofova

INSON RESURSLARINI BOSHQARISH
Inson resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning tendensiyalari 162-171

G.R.Kuziyeva

Kichik biznes va xususiy tadbirdorlikda ishchi kuchi samaradorligini oshirishda innovatsiyalarning ta'sirini baholash 172-180

G.R.Kuziyeva

Ishlab chiqarishda innovatsiyalarning joriy etilishining ishchi kuchi samaradorligiga ta'sirini baholash 181-188

S.K.Mansurov

TADBIRLIKNI RIVOJLANTIRISH
Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda tovarlar eksportining o'rni va ahamiyati 189-203

S.U.Ismailova

Роль цифровых маркетинговых стратегий в обеспечении устойчивого экономического роста в цифровой экономике 204-213

Sh.Sh.Ataganova

Turistik destinatsiya raqobatbardoshligini oshirish orqali mintaqada turizmni barqaror rivojlantirish 214-221

D.B.Fayziyeva

Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarining samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish 222-232

Sh.U.Karimova

Mintaqada turizmni rivojlantirishda turistik resurslardan unumli foydalanish 233-238

G.R.Kuziyeva

O'zbekistonda innovatsiyalarning yapli ichki mahsulotni diversifikatsiyalashdagi rolini baholash... 239-247

Sh.S.Sayfutdinov

Hududiy turizm bozorini barqaror rivojlanishining nazariy asoslari 248-254

D.T.Alijonova**B.A.Xonturayev**

GENDER TENGLIGI

Ta'lim institutlarini jamiyatga ta'sirini gender indekslari asosida baholash 255-270

MUNOSIB MEHNAT

S.B.G'oyipnazarov

Barriers to the adoption of Industry 4.0 technologies in the practice of occupational safety and health of smes... 271-281



**МЕХНАТ ИКТИСОДИЙТИ
ВА ИНСОН КАПИТАЛИ**
ISSN: 3030-3117
<https://laboreconomics.uz/>



**O'ZBEKISTONDA XORIJIY INVESTITSIYALARNI JALB QILISH ORQALI
MOLIYAVIY SALOHIYATNI OSHIRISHNING ZAMONAVIY HOLATI**

Akishova Shaxnoza Davlet qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti assistenti

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a125

Annotatsiya: Ushbu maqola mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali moliyaviy salohiyatni oshirishning zamonaviy holatini tahlil qilashdan iborat. Maqolada shu davrgacha jalb qilingan xorijiy investitsiyalar hajmi va uning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi hamda kelgusida jalb qilinadigan investitsiyalar hajmini oshirish bo'yicha davlatimiz rahbari tomonidan belgilanayotgan manzilli yo'nalishlar bo'yicha tahlil va natijalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiyalar, yalpi ichki mahsulot, investitsiyaviy muhit, investitsiya jozibadorligi, moliyaviy holat ko'rsatkichlari

**СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВОГО
ПОТЕНЦИАЛА УЗБЕКИСТАНА ПУТЕМ ПРИВЛЕЧЕНИЯ ИНОСТРАННЫХ
ИНВЕСТИЦИЙ**

Акишова Шахноза Давлетовна
ТГЭУ, ассистент

Аннотация. Данная статья представляет собой анализ современного состояния повышения финансового потенциала страны за счет привлечения иностранных инвестиций. В статье приведены анализ и результаты по объему привлеченных иностранных инвестиций и их доли в валовом внутреннем продукте страны, а также по целевым направлениям, определяемым главой нашего государства для увеличения объемов привлекаемых инвестиций в будущем.

Ключевые слова: показатели иностранных инвестиций, валовой внутренний продукт, инвестиционной климат, инвестиционной привлекательности, показатели финансового состояния.

**THE CURRENT STATE OF INCREASING THE FINANCIAL POTENTIAL OF
UZBEKISTAN BY ATTRACTING FOREIGN INVESTMENTS**

Akishova Shakhnoza Davletovna
TSUE, assistant

Abstract. This article is an analysis of the current state of increasing the country's financial potential through attracting foreign investment. The article analyzes and results of the volume of attracted foreign investments and their share in the country's gross domestic

product, as well as the target areas determined by the head of our state to increase the volume of attracted investments in the future.

Keywords: indicators of foreign investment, gross domestic product, investment climate, investment attractiveness, financial condition

Kirish

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga turli manbalar hisobiga investitsiyalarni jalb qilish ko'rsatkichlari yildan-yilga oshib bormoqda. 2017-yildan buyon mamlakatimiz iqtisodiyotiga barcha manbalar hisobidan 188 milliard dollar investitsiya kiritilgan. Shundan 87 milliard dollari chetdan jalb qilingan. Natijada investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 30 foizdan oshib, barqaror iqtisodiy o'sishga zamin bo'layapti. Bu yil iqtisodiyotga kiritilgan investitsiyalar hajmi 1,3 baravar ko'payib, 36 milliard dollardan oshdi. Bularning hisobiga yil boshidan buyon qo'shimcha 70 trillion so'mlik qiymat beradigan 560 ta yirik va o'rta loyihalar ishga tushirildi. Kelasi yildan eksportni yana 1 milliard dollarga oshirish imkoniyati paydo bo'ldi. Prezident Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, buning uchun xorijiy investorlar bilan manzilli ishlab, yanada qulayliklar yaratish, erishilgan barcha kelishuvlarni yuqori darajada amalga oshirish zarurdir.¹⁷

Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida xorijiy investitsiyalar mamlakatlar va mintaqalarni rivojlantirishning muhim vositasiga aylanib, qo'shimcha mablag', texnologiyalar va boshqaruv tajribasini jalb etish imkoniyatini yaratmoqda. Ular iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, ish o'rinnari yaratish va milliy iqtisodiyotlarning jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ushbu maqolada xorijiy investitsiyalarning asosiy jihatlari: turlari, afzallikkleri va xavf-xatarlari, shuningdek, chet el sarmoyasini samarali jalb etishga erishgan mamlakatlarning muvaffaqiyatli tajribalari ko'rib chiqiladi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar oqimi nafaqat qabul qiluvchi mamlakatlarning iqtisodiy resurslari, tuzilmalari, mexanizmlari va ko'rsatkichlariga, balki ularning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy sharoitlariga ham bog'liq.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Xorijiy investitsiyalar global iqtisodiyotda asosiy rol o'ynaydi, mamlakatlar o'rtasida texnologiyalar, kapital va boshqaruv ko'nikmalari transferini rag'batlantiradi. Ular boshqa mamlakatdagi aktivlar ustidan uzoq muddatli manfaatdorlik va nazoratni nazarda tutuvchi to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar shaklini olishi mumkin.¹⁸

¹⁷ Investitsiya sohasidagi rejalar. www.president.uz

¹⁸ Plouffe, M. (2020). Foreign Direct Investment. International Relations. <https://doi.org/10.1093/obo/9780199743292-0294>.

Xorijiy investitsiyalar, ayniqsa, global to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalarning sezilarli ulushini jalb qiladigan rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sishga yordam beradi

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish va O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini liberallashtirish sharoitida chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishni texnik qayta jihozlash, mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish uchun iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish muammosining roli va ahamiyati ortib bormoqda, qo‘yilgan vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishi mamlakat iqtisodiyotiga xorijiy kapitalni jalb qilish muammosini hal etish bo‘yicha to‘plangan tajribani chuqur o‘rganish, rag‘batlantirishning yangi yondashuvlari va usullarini ishlab chiqish zaruratini keltirib chiqaradi [1].

Yangi erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish ishlari alohida olingan hududlarni rivojlantirishga ko‘maklashadigan eng muhim yo‘nalishlardan biridir. Investorlar uchun foyda, davlat uchun byudjetga tushum, hududlar uchun esa yangi ish o‘rinlari va mahalliy byudjetga tushumlar muhim omillardan hisoblanadi. Ushbu manfaatlarni hisobga olgan holda mamlakatda erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish investitsiyalarni jalb qilishning asosiy shakllaridan hisoblanadi. Bugungi kunda yangi erkin iqtisodiy zonalarni barpo etish jarayoni jahon iqtisodiyotining eng muhim qismlaridan biridir [2].

Davlatda makroiqtisodiy va investitsion siyosatni amalga oshirish vositalarini tanlash masalasi iqtisodiyot rivojlanishining hozirgi bosqichida yetarlicha dolzarb hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, tarixan jamiyat va davlatning rivojlanishi bilan bu masalani hal qilishdagi yondashuvlar ham o‘zgarib borgan va ular bilan birga investitsiya modellari ham qayta ko‘rib chiqilgan. Har bir mamlakatda makroiqtisodiy tartibga solishning turli konsepsiya va nazariyalari milliy mentalitetni hisobga olgan holda rivojlanishning o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lib, iqtisodiy munosabatlar, jamiyat, sanoat rivojlanishining mahsulidir [3].

Xorijiy investitsiyalar milliy resurslardan yanada samarali foydalanish asosida qabul qiluvchi iqtisodiyotning iqtisodiy o‘sishiga yordam beradi. Samaradorlikning ikkita kanalini ajratib ko‘rsatish mumkin: xorijiy firmalarning milliy bozorga chiqishi samarasizroq milliy kompaniyalarning o‘rnini bosishiga yoki siqib chiqarilishiga olib keladi, bu esa qayta taqsimlanishga olib keladi yuqori va past rentabelli kompaniyalar o‘rtasida ichki resurslarni taqsimlash va qabul qiluvchi mamlakatda mehnat unumдорлиги va jon boshiga o‘rtacha daromadlar o‘sishiga ko‘maklashadi [4].


Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada mavzu doirasidan kelib chiqqan holda ilmiy va nazariy tadqiqotlar o‘rganilib, keng mushohada qilingan. Tadqiqotda qo‘yilgan maqsadga erishish uchun aniq yo‘nalish tanlab olingan. Sohaga doir statistik ma'lumot

manbalarini o’rganish va tahlil qilish asosida tadqiqot strategiyasi belgilab olingan.

Tahlil va natijalar


Xorijiy investitsiyalar har qanday davlatning iqtisodiy rivojlanish darajasidan shuningdek, u rivojlangan yoki rivojlanayotgan mamlakat bo’lishidan qat’iy nazar, uning iqtisodiy rivojlanishida katta rol o’ynaydi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari raqobatbardosh ustunliklarga ega va katta investitsiya salohiyatiga ega. Investitsiya salohiyatiga ularning turli darajada xalqaro hamkorlik uchun ochiq, shuningdek, Rossiya va Xitoyning muhim kapital bozorlari sifatida bir-biriga yaqinligi, tovarlar va mehnat eksporti va importi, Buyuk ipak yo’lida joylashganligi va boshqalarni ko’rsatishimiz mumkin[5].



1-rasm. Aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi (yillik)


Shuningdek, mamlakatimizda ham so’ngi yillarda investitsiyalarni jalb qilish bo’yicha keng ko’lamli ishlar olib borilmoqda. Soha hududlarimizda xorijiy investitsiyalar hajmini oshirish uchun keng imkoniyatlar yaratilyapti. So’ngi yillarda mamlakatimizda investitsiya hajmi oshib borayotgani sababli, aholi jon boshiga asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi ham oshib bormoqda. 2014-yilda bu ko’rsatkich juda kichik bo’lgan, ya’ni 3 foiz, 2017-yilda 5 foizda, 2018-yilda 8 foizni tashkil etgan bo’lsa, 2023-yilda bu ko’rsatkich 21 foizni tashkil etgan. Bu esa aholi jon boshiga investitsiyalar hajmi oshib borayotganligini ko’rsatmoqda (1-rasm).

2023-yilda asosiy kapitalga investitsiyalarning asosiy fondlar tarkibi bo’yicha tahlil qiladigan bo’lsak, eng ko’p qismi mashina va uskunalar kiritilgan investitsiyalar tashkil etadi. Noturar-joy binolari ham yuqori salmoqqa ega, ya’ni 75452.9 so’mni tashkil etgan. Eng kam ulush esa foydali qazilmalar zahiralarini razvedka qilish va baholashga to’gri kelgan (2-rasm).




2-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalarning asosiy fondlar turlari bo'yicha tarkibi (mlrd. so'm)

Investitsiyalarning mamlakat YaIM ga nisbatan 2014-yilda 20,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2019-yilda eng yuqori darajada - 36,8 foizgacha yetgan. 2022-yilda ushbu tendensiya 29,7 foizni tashkil etib, biroz pasayganiga qaramay, 2023-yilda yana 33,4 foiz bilan barqaror o'sish kuzatilgan (3-rasm).



3-rasm. Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning YaIMdagi ulushi

Mamlakatamizdagи investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari tarkibining dinamikasi shuni ko'rsatyaptiki, so'nngi yillarda asosiy kapitalga kiritilayotgan investitsiyalar tarkibida chet el investitsiyalari va kreditlari ulushi sezilarli darajada oshyapti. Albatta ushbu manbalarning asosiy qismini to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ulushining ko'payishi ijobjiy tendensiyalarni ko'rsatadi.



4-rasm. Asosiy kapitalga investitsiyalarda manbalar ulushi (foizda, %)

2014-yilda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi jami investitsiyalarning 18,5 foiz qismini tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2023-yilda 56,7 foizni tashkil qilgan. Bu esa, o'z navbatida xorijiy investorlarni jalg qilishda mamlakatimizda qulay investitsiyaviy muhit yaratilayotganini bildiradi (4-rasm).

Xulosa va takliflar

Xorijiy investitsiyalar iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi, nafaqat kapitalni jalg qilish, balki texnologiyalar transferini amalga oshirish, yangi ish o'rinarini yaratish imkonini beradi. Ular mamlakatning iqtisodiy rivojlanishini sezilarli darajada tezlashtirishi va uning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirishi mumkin. Biroq, investitsiyalarning jozibadorligiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan beqaror siyosiy va iqtisodiy muhit bilan bog'liq xatarlarni hisobga olish muhimdir. Qulay investitsiya muhitini yaratish, shu jumladan, investorlar huquqlarini himoya qilish va qonunchilik normalariga rioga qilish xorijiy kapitalni muvaffaqiyatli jalg qilishning zaruriy sharti hisoblanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalg qilish borasida keng qamrovli ishlar olib borilmoqda. Ayniqsa, investitsiyalar tarkibida chet el investitsiyalari ulushini ko'paytirish maqsadida, har xil yo'nalishlarda imtiyozlar, muzokaralar olib borilmoqda.

Yuqorida tahlil natijalaridan ko'rishimiz mumkinki, olib borilayotgan to'g'ri investitsiya siyosati natijasida, iqtisodiyotda investitsiyalar hajmi yildan-yilga oshib bormoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotida xorijiy investitsiyalar ulshushini yanada oshirish maqsadida bir qancha takliflar kiritish mumkin:

- Qulay investitsiya muhitini yaratish: qonunchilikni takomillashtirish, ma'muriy tartib-taomillarni soddalashtirish, investorlar huquqlari himoyasini ta'minlash.

- Infratuzilmani rivojlantirish: logistika va bozorlarga kirishni yaxshilaydigan transport va energetika infratuzilmasiga sarmoya kiritish.
- Moliyaviy imtiyozlar
- Sanoat zonalari: biznes yuritish uchun imtiyozli shartlarga ega bo'lgan erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish.
- Mahalliy kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash: raqobatbardosh muhitni yaratish va xorijiy hamkorlarni jalb qilish uchun mahalliy biznesni rivojlantirishga ko'maklashish.
- Hamkorlikni rag'batlantirish: investorlar e'tiborini jalb qilish va muloqot uchun platformalar yaratish uchun xalqaro forumlar va ko'rgazmalar o'tkazish
- Ta'lim va malaka: ishchi kuchining malaka darajasini oshirish uchun talab yuqori bo'lgan sohalarda mutaxassislar tayyorlashga e'tibor qaratgan holda ta'lim tizimini takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- [1] X. Э. Азимова, “Приоритетные направления привлечения иностранных инвестиций в экономику Узбекистана,” Экономика и социум, no. 10 (113)-2, pp. 455–460, 2023.
- [2] И. М. Майоров and М. В. Щеглов, “Свободные экономические зоны как инструмент привлечения иностранных инвестиций в национальную экономику: опыт Китая,” Фундаментальные исследования, no. 3, pp. 52–57, 2018.
- [3] Л. А. Ахмедова and У. Б. Булатова, “Зарубежный опыт привлечения иностранных инвестиций и возможности его использования,” Вестник Дагестанского государственного университета. Серия 3 Общественные науки, vol. 31, no. 2, pp. 34–45, 2016.
- [4] Г. М. Костюнина and Н. Н. Ливенцев, “Международная практика регулирования иностранных инвестиций,” М. Анкил, p. 95, 2001.
- [5] K. K. Nurasheva, I. I. Shalabayev, G. I. Abdikerimova, D. A. Kulanova, and A. T. Mergenbayeva, “Capital inflow and investment attractiveness of Central Asian countries (on the example of Kazakhstan),” Reg. Sci. Policy Pract., 2024, doi: 10.1016/j.rspp.2024.100039.
- [6] Plouffe, M. (2020). Foreign Direct Investment. International
- [7] www.lex.uz - O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi
- [8] www.stat.uz - O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi

CAPITAL INDEX QUALITY OF EDUCATION EXPECTED DURATION
EDUCATION EXPECTED DURATION OF EDUCATION LIFE EXPECTANCY
ION OF EDUCATION LIFE EXPECTANCY HEALTH STATUS HUMAN C
TAN DEMOGRAPHY ATUS HUMAN CAPITAL HUMAN CAPITAL IN
HUMAN CAPITAL HUMAN CAPITAL INDEX QUALITY OF EDUC
CAPITAL INDEX QUALITY OF EDUCATION EXPECTED DURATION
EDUCATION EXPECTED DURATION OF EDUCATION LIFE EXPECTANC
ION OF EDUCATION LIFE EXPECTANCY HEALTH STATUS HUMAN C
TANCY HEALTH STATUS HUMAN CAPITAL HUMAN CAPITAL IND
DEX 2024
NANCY
LABOUR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS
HUMAN CAPITAL

Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13



Tashkent, Uzbekistan



ilmiy maktab@gmail.com



www.laboreconomics.uz